

DEVIANT XULQ-ATVORLI O'SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Kalillayeva Ulbosin Ayapbergenovna

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali, Jismoniy tarbiya nazariyasi va gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada deviant xulq-atvorli o'smirlarda kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari hamda deviant xulq-atvor muammosini o'rganilgan. Deviant xulq-atvorli o'smirlarda kasb tanlashning nazariy metodologik asoslari, psixologiyada o'rganilishining o'ziga xos jihatlari, deviant xulq-atvorning ijtimoiy tabiati masalalarini nazariy tadqiq qilingan. Bundan tashqari o'smirlarda kasbiy muhim sifatlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlangan, O'smirlarda kasbiy muhim sifatlarini rivojlantirish bo'yicha psixologik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, ijtimoiy intellekt, motiv, motivatsiya, kasbiy yo'nalganlik, deviant-xulq atvor, delikvent xulq - atvor, giyohvandlik, ichkilikbozlik, shaxs shakllanishi.

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ МОТИВАЦИИ ВЫБОРА ПРОФЕССИИ У ПОДРОСТКОВ С ДЕВИАНТНЫМ ПОВЕДЕНИЕМ

Ўзбекского государственного университета физического воспитания и спорта
Нукусский филиал Соискатель кафедры теории физического воспитания и гуманитарных наук

Аннотация. В данной статье рассмотрены педагогико-психологические детерминанты формирования мотивации выбора профессии у подростков с девиантным поведением, а также проблема девиантного поведения. Теоретические методологические основы выбора профессии у подростков с девиантным поведением, специфические аспекты его изучения в психологии, теоретические исследования вопросов социальной природы девиантного поведения. Кроме того, выявлены психологические факторы, влияющие на формирование профессионально значимых качеств у подростков, разработаны психологические рекомендации по развитию профессионально значимых качеств у подростков.

Ключевые слова: подросток, социальный интеллект, мотив, мотивация, профессиональная ориентация, девиантное поведение, деликатное поведение, зависимость, пьянство, формирование личности.

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE FORMATION OF MOTIVATION FOR CHOOSING A PROFESSION IN ADOLESCENTS WITH DEVIANT BEHAVIOR

Kalillayeva Ulbosin Ayapbergenovna

Uzbek State University physical education and sports Nukus branch Candidate of the Department of Theory of Physical Education and Humanities

Annotation. This article explores the pedagogical-psychological determinants of occupational choice motivation formation in adolescents with deviant behavior as well as the problem of deviant behavior: Theoretical methodological foundations of career choice in adolescents with Deviant behavior; the peculiarities of their study in psychology, the issues of the social nature of deviant behavior have been nazrially studied. In addition, psychological factors affecting the formation of professionally important qualities in adolescents have been identified, psychological recommendations for the development of professionally important qualities in adolescents have been developed.

Key words: adolescent, social intellect, motive, motivation, professional orientation, deviant behavior, delinquent behavior, addiction, alcoholism, personality formation.

Jamiyatda deviant xulq-atvorning yuzaga kelishining dastlabki ob'ektlari jamiyatimizning asosiy qismini tashkil etuvchi yoshlardir. Turli darajadagi ijtimoiy o'zgarishlar ota-onalarimizning, oilalarimiz, maktablar, mahallalar va boshqa ijtimoiylashuv agentlarining ishini to'g'ri tashkil eta olmasligi, jadal o'zgarishlarga moslashuvchanlik darajasi pastligi oqibatida asosan yoshlarda, bolalik chog'idan boshlab og'ma xulq-atvorning shakllanishi kuzatiladi. Deviant xulq-atvor tengdoshlar bilan munosabatda qo'pollik, oila a'zolariga va ustozga quloqsizlik, yolg'onchilik kabi illatlardan iborat nojo'ya hatti-harakat hisoblanadi. Bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlarida, deviant xulq-atvor tipdagilar soni o'sib borayotganligini bu achinarli. Voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning kuchayishi, giyohvandlik, ichkilikbozlik, fohishabozlik kabi og'ma xulq-atvor tiplari shakllanib jamiyat taraqqiyoti, ma'naviy rivojlanishiga xavf solmoqda.

O'smir-yoshlarning deviant xulq-atvori pedagoglar, psixologlar, ijtimoiy xizmat va tibbiyot sohasi xodimlari, huquqni muhofaza qiluvchi davlat organlari xodimlarining doimiy diqqat markazidadir. Qator xorijiy davlatlar hamda mahalliy olimlarimiz voyaga yetmagan o'smirlar xulq

atvoridagi deviant xulq ko‘rinishlarining kelib chiqish sabab, sharoitlarini o‘rganishmoqda. Ilmiy izlanishlardan ma‘lumki, o‘smirlarga turli jamiyat uchun xavfli bo‘lgan harakatlar bevosita ta‘sir qilmoqda, jumladan, oiladagi moddiy yetishmovchiliklar, o‘smirlarning turli nosog‘lom guruhlari, maktabdagi kelishmovchiliklar va boshqalar. Ko‘pgina o‘smirlarga deviant xulqning delinkvent, adektiv va nointizomiy ko‘rinishlar xosdir. Deliktivent xulqi ma‘naviy va huquqiy me‘yorlarning buzilishi (huquqbuzarlik) bo‘lsa, adektiv xulq bolaning hayoti va sog‘ligiga xavf tug‘diruvchi illatlarga bog‘lanib qolishi qo‘shimchadir, ya‘ni kashandalik, alkogolizm, g‘iyohvandlik, internetni suiiste‘mol qilish. Nointizomiy xulq o‘quvchilar kunlab, oylab darsga qatnashmasliklari oqibatida salbiy holatlarni namoyon bo‘lishi atrofda tengdoshlariga salbiy ta‘sir qilishi mumkin.

O‘smirlar xulqida deviant ko‘rinishlar ildizi ularning tarbiyaviy va ijtimoiy tomonidan yetarli darajada ishlanmaganlikdan, jismoniy va aqlan yetuk emasligidan ham bo‘lishi mumkin. Bu illatlarning o‘zaro to‘qnashishi natijasida intizomsiz, axloqsiz shaxslar shakllanadi. Bunday xulqning amaldagi in‘ikosi sifatida ularning atrofda odamlar bilan keskin munosabatini ko‘rish mumkin. Oiladagi nosog‘lom muhit bolada qo‘pollik, odamovilik, yolg‘onchilik kabi xususiyatlarni uyg‘otadi, bunday bola o‘z xarakterlari bilan barchaga va bariga «teskari» ish qilmoqchi, bo‘ysunmaslik, agressiya kabi tuyg‘ularni keskin ko‘rsatmoqchi bo‘ladi, bu bilan u huquqbuzarlik, jinoyatlarga zamin yaratadi. Psixologik nuqtai nazardan bunday agressiv xulqni tuzatish deganda o‘z-o‘zini hurmat qilishi, o‘z «men»ini shakllantirishi, atrofda odamlar, o‘z tengdoshlari bilan muloqotni o‘rnatish ishlari nazarda tutiladi. Bunday tuzatish ishlari izchil olib borilishi davomida sekin-asta nafaqat illatlarni tuzatish, balki butunlay yo‘qotib, shaxsni qayta tarbiyalash ham muhimdir. Mohir psixolog va pedagog o‘z mahorati bilan illatli xulq-atvor egasi bo‘lmish o‘smirlarga shunday tarbiya choralari ko‘radiki, natijada ular bunday toifadagi o‘smirlarni qayta tarbiyalaydilar. Shu bilan birgalikda shaxs tarbiyasi ma‘no-mazmuni to‘lib, u o‘z davlati, jamiyatiga foydali inson bo‘lib yetishadi. **A d a b i y o t l a r** tahlili. Deviant xulq-atvor muammosi bir qancha chet el va mumtoz psixolog va sotsiologlar tadqiqotlariga asoslanadi. Kalassik yo‘nalishda muammoning nazariy va ilmiy konsepsiyalari yaratilgan bo‘lib, dastabki nazariya, bu ijtimoiy anomiya (E. Dyurkgeym, R. Merton, T. Parsons), og‘ma xulq -atvoning jamiyat hayotiga salbiy ta‘siri, radikal ijtimoiy o‘zgarish. Bu nazariyaning o‘ziga xosligi shundaki, deviant xulq-atvor muammosini sotsiologik tadqiqot yadrosi qilib o‘rganadi. Addiktiv xulq-atvor sababini tushintirishga qaratilgan yana bir asosiy yo‘nalish stigmatizatsiya (G. Bekker, I.Gofman, I.Lemmert i dr.).Submadaniyat deviatsiyasi nazariyasi (A.Koen, R. Klouard va L.Oulin), Real hayotda va o‘z intilishlarni amaga oshirishda deviant huql-atvor ta‘siri to‘g‘risida fikr bildiriladi. Differensial a‘loqalar nazariyasiga ko‘ra (E. Saterlend), xulq og‘ishiga mikroijtimoiy muhitning ta‘siri asos qilinadi. Yoshlarda og‘ish holatlarning yuzaga kelishiga asosiy sababi. bu turli guruhlarning ta‘siri, yoshlar ehtiyojlariga qarab mazkur guruhlar normalariga amal qiladi, bu yoshlarda deviant xulq-atvor shakllanishiga olib keladi. G.Tardning fikricha, ko‘proq taqlid qilish oqibatida.

Yoshlardagi og‘ma xulq-atvor muammosini o‘rganilishida bir qancha mumtoz sotsiologlarning ishlari ham muhim ahamiyatga ega. Aytish mumkinki sobiq sovet ittifoqi davrida, yoshlar og‘ma xulq-atvor muammosi o‘rganilishi asosan kriminologiya, psixologiya, pedagogika fanlari tomonidan amalga oshirilgan. (Yu.M. Antonyan V.N.Kudryavsev A.M.Yakovlev, I.S.Kon va boshqalar).

Respublikamiz olimlari ham o‘smirlar orasidagi deviant xulq muammolariga o‘z ilmiy ishlarida murojaat qilganlar. A.I.Ostrovskiy, Sh.A.Isroilov, O‘.Q.Tolipov, Yu.M.Asadov, S.Fayziev, K.Normatov, D.Sharipova, G.Xudoyarova, G.T.Yadgorova, O.U.Avloyevlar o‘z ilmiy izlanishlarida deviant xulqli o‘smirlar xulq-atvoriga xos salbiy illatlarning oldini olish, unga qarshi kurashish, ularni qayta tarbiyalashning psixologik, pedagogik, huquqiy masalalarini o‘rgangan bo‘lsalar, respublika faylasuflari E.Yusupov, X.Shayxova, Q.Nazarov, N.Komilov, M.Xolmatova, M.Imomnazarovlar shaxs tarbiyasida ma‘naviy-axloqiy tarbiya masalalarini, sotsialog M.Bekmurodov shaxs axloqini shakllantirishda hamda axloqiy buzilishlarni oldini olishda jamoatchilik fikrining tutgan o‘rni masalalarin, huquqshunoslar O.Oqilov, A.Qulahmetov, M.Usmonaliev, R.A.Turdievlar jinoyatchilik, jumladan o‘smirlar jinoyatchiligi masalalarini ilmiy o‘rganishgan.

Deviant xulq-atvorli o‘smirlar alohida xususiyatlarining ijtimoiy-psixologik tashxisi

Psixologik tashxis qo‘yish (diagnostika) - bu maxsus nazariy bilimlar majmuasi bo‘lib, u amaliy psixologiyaning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Demakki, uning ma‘no-mohiyati ikki tarmoqqa bo‘linadi:

- 1) bunda shaxsning individual-psixologik holatlari, shaxsiy xususiyatlari o‘rganiladi;
- 2) amaliyot ruhshunoslarining tashxis qo‘yish ishlarida ishlatadigan yo‘nalish, maxsus kurs.

Psixologik tashxis - bu sinalayotgan shaxsning shaxsiy-ruhiy xususiyatlarini o‘rganishning yakuni. Bunday aniq tashxis qo‘yish ahamiyatli, chunki aynan shu xulosa shaxsning ruhiy holatini, uning fe‘lidagi xossalarni, temperamentini baholashga imkon yaratadi.

Ijtimoiy-psixologik tashxis - bu o‘smirlarning o‘zaro oilada, «kichik guruhlarda, to‘garakda, sport jamoalarida va boshqalarda shakllangan ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini to‘g‘ri baholash». Deviant xulqli o‘smirlarning ijtimoiy-ruhiy holatlarini quyidagi usullarda tashxislash keng qo‘llaniladi. AQSh, Olmoniya, Fransiya, Rossiya, Yaponiya kabi davlatlarda ruhiy tashxis qo‘yish uslublari

bilan mutaxassislar izchil faoliyat olib boradilar. Bunday izlanishlar natijalari bo'yicha ilmiy, tibbiy, ma'rifiy maskanlarda tatbiq etishga ruxsat oladilar. Tashxisni belgilashda psixolog aniq va alohida bo'lgan ijtimoiy-ruhiy xususiyatlarni aniqlashi darkor. Psixolog nafaqat yuqoridagi xususiyatlarni aniqlashi, balki ularning kelib chiqish sabablarini ham o'rganishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuzatuv, suhbatlar, intervyu, anketa so'rovnomasi, ekspert baholash usuli, o'z-o'zini baholash uchun shaxsiy so'rovnomalar, ruhiy testlar, ijtimoiy baholash usullari.

Psixodiagnostika davomida deviant xulqli o'smirlarning quyidagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini hisobga olish kerak:

- o'smirning hayotiy mezonlari;
- ma'naviy va huquqiy me'yorlar haqida tushunchaga ega bo'lish;
- o'qituvchilar, ularning ota-onalari va sinfdoshlari bilan muloqot;
- psixodiagnostika qilishdagi qiyinchiliklar, ular bilan kelisha olmaslik;
- o'zining imkoniyatlari, qobiliyatlari, xususiyatlarini baholash;
- deviant xulqqa moyilligi;
- O'z kelajagiga, o'qish va kelgusi hayotiga bo'lgan munosabatlar.

Kasbiy yo'nalganlik va uning shaxs individual-psixologik xususiyatlariga bog'liqligi masalalari bir qator xorij psixologlari tomonidan turli mutaxassislikdagi talabalarda o'tkazilgan tadqiqot ishlari, ilgari surilgan nazariyalar, yondashuvlar, fikrlar orqali ochib berishga harakat qilingan.

Kasbiy yo'nalganlikni o'rganuvchi konsepsiyalardan ko'proq mashhur bo'lgani, uni butun uzluksiz jarayon sifatida tadqiq etuvchi D.E.Syuper va T.V.Kudryavsevlarning konsepsiyalaridir.

D.E.Syuperning konsepsiyasi XX asr 50 yillarining o'rtasidan rivojlana boshladi va kasbiy yo'naltirish muammosini tadqiq qilishning shaxsiy statistik yondashuviga o'ziga xos javob bo'ldi.

M.I.Dyachenko, L.A.Kandibovichning ta'kidlashicha, talabalarda kasbiy yo'nalganlikni rivojlantirish – bu bo'lajak kasbiga ijobiy munosabatni, unga qiziqish, layoqat va qobiliyatlarni mustahkamlash, oliy o'quv yurtini tugatgandan so'ng o'z ixtisosligini takomillashtirish istagi, tanlangan kasb sohasida doimiy mehnat qilib o'zining asosiy moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, bo'lg'usi mutaxassis ko'z o'ngida kasbning obro'sini oshirishdir.

Kasbiy yo'nalganlik mazmunidagi ijobiy o'zgarishlar bo'lg'usi kasb bilan bog'liq motivlar mustahkamlanishida namoyon bo'ladi: o'z ish majburiyatlarini yaxshi bajarishga intilish, mohir, yetuk mutaxassis sifatida o'zini ko'rsatish, murakkab o'quv vazifalari, masalalarini aniq echishga intilish, ma'suliyat hissining kuchayishi, ishda muvaffaqiyatga erishish istagi.

Shu bilan birga ijtimoiy burchga, o'ziga, intilishlariga, hislariga munosabatning rivojlanishi bilan kasbiy motivlarning mazmuni o'zgaradi: ularning ba'zilar muhim, ayrimlari esa muhim emas deb baholanadi. Ba'zan kasbiy yo'nalganlikning susayish hollari ham uchraydi (ta'limdagi kutilmagan qiyinchiliklar va boshqalar ta'sirida).

V.A.Sonin tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, talabalarda kasbiy yo'nalganlikni muvaffaqiyatli rivojlantirish omillaridan biri ularda kasb tanlashning ijobiy motivlarining shakllanganligidir.

Kasbiy yo'nalganlikni muvaffaqiyatli shakllantirish omillaridan yana biri oliy o'quv yurtiga topshirayotgan talabalarni kasbiy tanlashdir. U umumiy abituriyentlar ichidan shu oliy o'quv yurtida o'qishga psixologik moslarini tanlashga yordam beradi. Turli metodlarni qo'llash orqali har bir abituriyentning real imkoniyatlari va qobiliyatlarini aniqlash, bo'lg'usi kasbni tanlashga yo'llash imkonini beradi.

Oliy o'quv yurtiga kirgan talaba ijtimoiy-foydali, mazmunli faoliyat bilan doimo shug'ullanadi, natijada unda shaxsning kasbiy yo'nalganligi va kasbiy motivlar shakllanadi. Kasbiy yo'nalganlik muvaffaqiyatli shakllanishining doimiy omillaridan biri talabalar ta'limi va tarbiyasi jarayonida uning mazmuni va tuzilishidagi o'zgarishlarni o'rganish hisoblanadi. Bu o'zgarishlarning ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bog'liqdir: talaba oldin qanday maqsadlarni qo'ygan edi, hozir qanday maqsadlar qo'ymoqda, turli xil faoliyatlarda u o'zini qanday namoyon etadi, uning kasbga munosabati qanday, qiziqishlari, ideallari, ustanovkalarining xususiyatlari va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2000.- 512 с.
2. Исломов. З. Давлат ва ҳуқуқ: умумназарий масалалар. – Тошкент, 2000.- 173 б.
3. Еникеев М.И. Психологический энциклопедический словарь. – М.: ТК Велби. Изд-во Проспект, 2006.- 560 с.
4. Камарали С.Е. Социально-психологические аспекты общения (тезисы к докладу). – Донецк: ДонНУ, 2007.- 16 с.
5. Камардина Г.Г. Психологические трудности общения: основы психотехнологии: К 18. Учеб. пособие. – Ульяновск, 2000.- 52 с.
6. Каримова В., Акрамова Ф. Психология. Маърузалар матни. – Тошкент: ФТДК, ДИТАФ, 2000.- 171 б.
7. Каримова В.М. Психология. Ўқув қўлланма. – Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ меъроси нашриёти «УАЖБНТ» маркази, 2002.- 205 б.
8. Лабунская В.А Экспрессия человека: общение и межличностное познание. – Ростов-на-